

AJ “O’zmetkombinat”  
Kuzatuv kengashining qarori bilan  
“TASDIQLANGAN”  
19 sentabr 2016 yil  
Gerbli muhr

**AJ “O’ZMETKOMBINAT”  
BOSHQARUV VA NAZORAT O’RGANLARINING  
HISOBOTLARIGA QO’YILADIGAN TALAB VA SHAKLLARI  
TO’G’RISIDA NIZOM**

## **I. UMUMIY QOIDALAR**

1. Ushbu Nizom, O'zbekiston Respublikasining fuqorolik Kodeksi va O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqini himoya qilish" haqidagi qonuni, 16.10.2006 yilgi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan 215- sonli Korxonalarda ichki audit xizmati haqida Qoidalar va 31.12.2015 yilgi aksiyadorlik jamiyati faoliyati samarasini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini yaxshilash Qo'mitasi majlisining 9- sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksiga ko'ra boshqaruv va nazorat organlari hisobotlarining shakli va mazmuniga bo'lgan talablarni belgilaydi.

## **II. BOSHQARUV ORGANLARI HISOBOTLARINING SHAKLI VA MAZMUNIGA BO'LGAN TALABLAR**

2. Boshqaruv (kuzatuv kengashi va ijroiya organ) va nazorat (taftish qo'mitasi, ichki audit xizmati) organlari hisobotlari yozma ko'rinishda tayyorlanadi va ular aniq va qisqa bo'lishi kerak.
3. Boshqaruv organlari hisobotlarida
  - Asosiy ko'rsatkichlar (reja / dalil ko'rinishida) taqqoslashi;
  - Bajarilmaslikning asosiy sabablari;
  - Jamiyat faoliyatida aniqlangan kamchiliklar va bunday kamchiliklarga yo'l qo'ygan shaxslarga nisbatan ko'riladigan choralar;
  - Rivojlanish strategiyasining bajarilish jarayoni va h.k. ko'rsatilishi kerak.

## **III. BOSHQARUV ORGANLARI HISOBOTLARI**

4. Jamiyat boshqaruv organlari bo'lib aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, kuzatuv kengashi va ijroiya organ hisoblanadi.
5. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqini himoya qilish" haqidagi qonunining 58 va 59 moddalariga binoan kuzatuv kengashi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi oldida quyidagi masalalar bo'yicha hisobot beradi:
  - Jamiyatning rivojlanish strategiyasiga erishish uchun ko'rilayotgan choralar;
  - Kuzatuv kengashi vakolatlariga kiradigan masalalar, shu jumladan, qonunchilik bilan begilangan, jamiyat boshqaruviga bo'lgan talablarga rioya qilish bo'yicha.
6. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqini himoya qilish" haqidagi qonunining 58, 59, 75 va 79 moddalariga binoan, kuzatuv kengashi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi (yillik majlisi) va kuzatuv kengashi (har chorakda) oldida quyidagi masalalar bo'yicha hisobot beradi:
  - Jamiyatning yillik biznes rejasini bajarish;
  - Jamiyatning rivojlanish strategiyasiga erishish uchun ko'rilayotgan choralar;
  - Samaradorlikning asosiy ko'rsatkichlari natijasi va boshqalar.

## **IV. NAZORAT ORGANLARI HISOBOTI**

7. Vazirlar Mahkamasi tomonidan 16.10.2006 yilda 215 – son bilan tasdiqlangan "Ichki audit xizmati haqida Qoidalar" ga binoan, ichki audit xizmati har chorakda kuzatuv kengashi oldida hisobot beradi.
8. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqini himoya qilish" haqidagi qonunining 107 moddasiga binoan, taftish qo'mitasi (taftishchi) jamiyatda afillangan shaxslar bilan bitimlar yoki yirik bitimlar borligi haqida, shuningdek, bunday bitimlarni mukammallashtirishda qonunchilik va jamiyatning ichki hujjatlari talablariga rioya qilish haqida hisobotini jamiyatning kuzatuv kengashi majlisiga har chorakda taqdim qiladi.
9. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida, tarkibida quyidagilar bo'lgan, taftish qo'mitasining hulosasi eshitiladi:

- Jamoyat hisobotlari va boshqa moliyaviy hujjatlarida bo'lgan ma'lumotlarning aniqligiga baho berish;
- Moliyafiy – ho'jalik faoliyatini amalga oshirishda bugalteriya hisoboti va moliyaviy hisobotlarni taqdim qilish tartibini, shuningdek, qonunchilikni buzish holatlari haqida ma'lumot.

#### **V. YAKUNIY QOIDALAR**

10. Ushbu Nizom talablarini buzishda aybdor hisoblangan shaxslar o'rnatilgan tartibda javobgar hisoblanadilar.